

**TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIDA YANGI  
INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH**

**SADRIDDINOV ISKANDAR AHMADALIYEVICH**

*Namangan davlat universiteti Sirtqi ta'limi Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi yo'nalishi 3-kurs S.TSM-BU-21 guruh talabasi va 74-umumta'lim  
maktabida o'qituvchi*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqola tasviriy san'at va chizmachilik fani  
darslarida bo'layotgan muammoli vaziyat, o'quvchilarni darsga bo'lgan  
qiziqishini pastligi, darsni nozoril va zerikarli deb fikrlashlarida, hamda darsni  
o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan va bir nechta  
metodlarni taqdim etadi*

*Shuningdek bu metodlarni o'qituvchi tomonidan ditaktik materiallari va  
qolaversa bu metodlardan foydalanilishi mumkin bo'lgan materiallarni ham  
amaliy tarzda bajariladigan strukturaviy ketma-ketlik bosqichlari bu maqolada  
mavjud va mazkur maqolada amalga oshirilgan tadqiqot ishilar ham taqdim  
etiladi va albatda mana shu maqola yuzasidan hulosa va takliflar ham berilgan*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogika, tarbiyaviy, tafakkur, kelajak kasblari, sun'iy  
intellekt, kreativlik, motivatsiya.*

This article is aimed at solving the problematic situation in art and drawing subjects, students' low interest in the lesson, thinking that the lesson is difficult and boring, as well as difficulties in mastering the lesson, and presents several methods.

**АННОТАЦИЯ:** *Данная статья направлена на устранение  
проблемной ситуации на занятиях по изобразительному искусству и  
рисованию, низкой заинтересованности учащихся к уроку, того, что они  
считают урок трудным и скучным, а также трудностей в освоении урока,  
и представляет несколько методов.*

*Также в данной статье доступны этапы структурной*

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

*последовательности, которые используются учителем в дидактических материалах, а также материалы, которые могут быть использованы этими методами, а также представлены исследовательские работы, проведенные в данной статье. , и конечно, также даются выводы и предложения относительно данной статьи.*

***Ключевые слова:*** Педагогика, образование, мышление, будущие профессии, искусственный интеллект, креативность, мотивация.

***ANNOTATSIYA:*** *Also, the steps of the structural sequence of the didactic materials by the teacher and the materials that can be used by these methods are presented in this article, and the research works carried out in this article are also presented.*

*And of course, conclusions and suggestions are also given regarding this article.*

***Keywords:*** *Pedagogy, educational, thinking, future professions, artificial intelligence, creativity, motivation*

Hozirgi XXI-asr texnologiya asrida o'quvchilar bolalar garchetlarga bog'lanib ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanishadi, lekin ta'lim, til, ilmiy, texnologik ma'lumotlar, ko'rsatuvlarni ko'rish fikrlari shakllanmaganligi, kelajak kasblardan yetarli ma'lumoti yo'qligi va shu bilan birga aniq maqsadi yo'qligi sabab ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanmayotgani, shu bilan birga maktab darsliklari xususan tasviriy san'at va chizmachilik faniga qiziqmasligi ko'p uchrayotgan holat bo'lib qolyapti. Dar haqiqat mana shu masala hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biriga bo'lib qolmoqda. Hurmati baland hamkasblar Siz pedagoglarga ham bu muammolar ko'p kuzatilayotgan bo'lsa kerak.

Biz pedagoglar ularga ijtimoiy tarmoqlarda meyorini hisobga olgan holda mazmunli o'tqazishlarini, hamda darslarga bo'lgan qiziqishlarni orttirish, zerikarli holatlarga yo'l qo'ymasdan zamonaviy interfaol metodlaridan foydalanishimiz va darslarni samarali tashkil etishdagi bir qancha tamoyillardan foydalanishimiz lozim bo'lyapti.

Mana shunday o'quvchi-yoshlarimizda darsni o'zlashtirishni rivojlantirmasak, jamiyatimizda kelajakda o'quvchilarni yetuk kadr bo'lib yetishishida ozgina kech qolishimiz mumkin.

Shunday ekan o'quvchilarimizni hozirgi zamonga moslashtirish creative fikrlash har tomonlama tahliliy-tanqidiy fikrlay olish ko'nikmasini rivojlantirish hozirgi zamonda eng dolzarb masalaga aylandi.

Aslida tasviriy san'at va chizmachilik fani o'quvchilarni kreativ- ijodiy fikrlay oladigan kadrlar bo'lib yetishishda o'rni juda ham beqiyos fandır. Bu darslarimizda interfaol metodlardan foydalanilish juda samarasi yuqori bo'lishi ko'plab tajribalar natijasida isbotlangan.

### **Asosiy qism**

Ma'lumki turli xil atamalar muhim kalit so'zlar va ba'zi narsalarining joylashish strukturasi ko'ra alohida ta'riflari o'quvchilarni esda tutib qola olmasliklari, ko'p hollarda yodlab olishlariga erinishlari ko'p uchraydi. Masalan: tasviriy san'at turlari, janrlari; chizmachilik fanida esa qirqim turlari, eshik va derazalar, qurilish chizmalardagi elementlar va hokazolar

Bunday holatlarda boshlang'ich va yuqori sinflarida ham birdek qo'l keladigan "Soat millari" metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

"SOAT MILLARI" metodi

Reglament: 15-20 daqiqa;

Resurslar: Bu metodda A4 formatdagi qog'ozga darsda o'zlashtirish kerak bo'lgan ma'lumotlarni kiritiladi. Bular masalan: tasviriy san'at janrlari 10 dan ortiq; yoki chizmachilik fani bo'yicha ko'rinishlar; chiziq turlari; qurilish elementlari va hamda ularning joylashuviga ko'ra ta'riflari yozilishi mumkin. Bu qog'ozda shunday nazariy ma'lumotlarni keltirishimiz lozim bo'ladi.

Ushbu metodda foydalanishimiz mumkin bo'lgan biletlar ichiga kiritilgan ma'lumotlarga misollar:

“Manzara janri\_ Tabiat, shahar, industrial, interer ko'rinishlarini tasvirlanishi tasviriy san'atda manzara janri deyiladi” yoki chizmachilik fani bo'yicha:

“KARNIZ (bog'ot)\_ ya'ni bino devorining yuqori qismidagi gorizontal chiziq, va bu binoning tomini tutib turadi, hamda devorni yog'in-sochindan himoya qiladi hamda bezash uchun ham xizmat qiladi” va shu kabi nazariy ma'lumot kiritiladi. Malumotlar bir oz kattaroq shriftda kompyuterda chop etiladi. Shunday qilib nazariy ma'lumot 3-4 qatoridan 12-15 qatorgacha bo'lgan nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shunday ma'lumotlarni A4 listga / 4 6 tagacha sig'dirish mumkin. shunday A4 listdagi har bir ma'lumotlarni ajratib qirqib chiqiladi, so'ngra bilet shaklida keltiriladi. Bu biletlar har bir o'qu chilarga vaziyatdan kelib chiqqan holda bittadan tarqatiladi.

SOAT MILLARI metoddan darsda foydalanish jarayoni:

Ushbu metodni bajarish uchun ishtirokchilarni ikki guruhga ajratib olish lozim bo'ladi. Bunda ularni "1-2" ga sanalgan holda ikki guruh tashkil qilamiz, xuddi jismoniy tarbiya darsidagi gruppaga bo'lgan singari "1" deganlar ikki qadam oldinga chiqadi va ular ichki doimini hosil qiladi. "2" deganlar tashqi doirani hosil qilib, ichki doiraga parallel ravishda joylashadi. Ichki doira tashqi doiraga qarab 180 gradusga aylanadi. Ya'ni bir birlariga qaragan holda joylashib turishadi.

Odatda soatda ikkita ko'rsatkich (strelka) bo'ladi hamda soatdagi daqiqa ko'rsatkichlari soat ko'rsatkichlariga qaraganda tezroq aylanadi. Demak tashqi doira-- daqiqa strelkasi, ichki doira esa-- soat strelkasi vazifasini bajaradi. Har aylanish chastotasini esa qarsak chalish bilan belgilaymiz. Qarsak chalingungacha bo'lgan vaqtda esa tashqi doiradagi ishtirokchilarning har biri o'zlariga parallel ravishda turgan ichki doiradagi ishtirokchilarga u o'zlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni va aksincha, ichki doiradagi har bir ishtirokchi o'zlariga parallel ravishda turgan tashqi doiradagi ishtirokchilarga o'z ma'lumotlarini tushuntirib berishlari talab etiladi.

Har bir aylanish muddati bir daqiqa davom etib millar shu tariqa almashinib boraveradi. Jarayon ishtirokchilar soni va berilgan ma'lumot hajmiga qarab o'rtacha 5-10 daqiqa vaqt ichida bajariladi.

Jarayon yakuniga yetganidan so'ng, ichki doira o'ng tarafga, tashqi doira chap tarafga o'tib guruhida o'zaro bir-birlariga tushuntirib berishadi. Bu jarayonda

endi ikkita alohida yaxlit doira hosil qilinadi. Umumiy jarayon yakuniga yetgandan so'ng ma'lumotlar umumiy mustahkamlanadi. Shunday qilib yirik hajmli matnni tushuntirib, o'zlashtirish uchun bor-yo'g'i 10-15 daqiqa sarflanadi, xolos. Jarayon esa zerikarli nazariy qismdan zavqli ham jismoniy harakatli qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Dar haqiqat tasviriy san'atda darslaridagi janrlarni ham yodlab olishni qiyin ko'radigan yuqori sinf o'quvchilariga, chizmachilik fanlaridagi detal ko'rinishlari yoki qurilish chizmasidagi elementlarni joylash strukturasi bilan eslab qolishlariga va qiyin nazariy ma'lumotni oson va tez o'zlashtirishga yordam beradi. Dars jarayonini hamda aqliy va jismoniy harakatni vujudga keltiradi; Mazmuni nafaqat tushunish balki tushuntirish ko'nikmasi paydo bo'ladi;

Komunikativlik yuzaga keladi;

O'quvchilar muloqotga vaqtida fikrni bayon qilib berish nutqini tushunarli va ta'sirli yetkazib berishga harakat qiladi.

"SOAT MILLARI" metodi o'qituvchilari uchun quyidagi afzalliklarni beradi: Bu metod orqali katta hajmning murakkab nazariy ma'lumotni o'quvchi tilida oson bera olish mumkin bo'ladi, vaqt tejaladi;

Nazariy va darslarni hamma zavqli ham qiziqarli tashkil etish mumkin bo'ladi; o'quvchilarni darsda obyekt emas subyekt bo'lishiga mazmuni mavzuni nafaqat tushuntirish balki o'z bilim va tafakkuri doirasida tahlil qilib uni tengdoshlarga qayta tushuntirishga xizmat qiladi; nutqni rivojlantirishga qaratilgan metod hisoblanadi qolaversa o'quvchi ma'lumotni o'z tengdoshlariga tilidan eshitsa ma'lumotni tushunarliroq va osonroq qabul qiladi.

Maktabimizda jami 5 ta 9-sinflari o'rtasida tadqiqot o'tkazish maqsadida, ushbu "Soat millari" metodini 2 ta 9-sinf o'quvchilarida qurilish chizmachiligiga oid bino elementlari mavzusida dars jarayonida metodni qo'lladik. So'ngra qolgan 3 ta 9 sinf o'quvchilarda esa, mavzu bayoni keyin amaliy mashg'ulot so'ngra qo'shimcha uy vazifasi sifatida bino elementlarini yodlab kelishini topshiriq qilib berdik. Keyingi darsdagi savol-javob paytida shu narsa ayon bo'ldiki natijada dars davomida "Soat millari" metodini qo'llagan 2 ta 9-sinf o'quvchilari 70 % gacha

javob berishdi, qolgan 3 ta 9-sinf o'quvchilar esa 45-50% gacha o'quvchilar bino elementlarini sanab bera olishdi. Natijada ushbu metodning samaradorligi 25% gacha aniqlandi.

**Xulosa**

Hozirgi davrda texnika-texnologiya asrida faqat bilimli, kreativ fikr lay oladigan, innovatsiya va loyihalar ustida ishlay oladigan, innovatorlik ko'nikmalari shakllangan o'quvchilarni tarbiyalashimiz, ularni jamoada ishlay oladigan hamda kelajakda o'z o'rnini topa oladigan, kelajak kasblarni o'zlashtirish orqali raqobatbardosh, inovator yoshlar etib tarbiyalashda biz jamiyatning fidoyi va ziyoli qatlami bo'lmish biz ustozlarga bog'liq bo'lib qolaveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Dilafuz Hidoyatova (2023) SAMARALI INTERAKTIV METODLAR 1,0
- 2) R. Z. XAYROV (2023) Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi.